

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

JIZZAX POLITEKNIKA INSTITUTI

«Tasdiqlayman»
O'quv ishlari prorektori
_____ M.Pozilov
« ____ » _____ 2011 yil

«SANOAT TEXNOLOGIYASI» FAKULTETI

«O'Z D J Q A» KAFEDRASI

«O'ZBEKISTON TARIXI» FANIDAN

Amaliy mashg'ulotlar uchun

USLUBIY QO'LLANMA

Tuzuvchilar:

Assistent Fayzullaeva K.

JIZZAX-2011

Ushbu uslubiy qollanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan namunaviy o'quv reja va dasturi asosida tuzilgan.

Uslubiy qollanma Institut ilmiy uslubiy kengashining 2010 yil _____
№ ____sonli qarori bilan tasdiqlangan

Uslubiy qollanma «Sanoat texnologiyasi» fakulteti ilmiy kengashining 2010 yil _____
№ ____sonli majlis qarori bilan tasdiqlangan.

Fakultet dekani:
_____ dots. Urdisheva B
«____» _____ 2010 yil

Uslubiy qollanma «O'zDJQA» kafedrasining 2010yil _____ № ____ sonli majlis
qarori bilan tasdiqlangan

Kafedra mudiri:
_____ dots. Q. O'ralov.
«____» _____ 2010 yil.

O'quv soatlari taqsimoti

№	Taqsimot turi	Kurs	Semestr	Jami
		I	I	
1.	Umumiy soat soni			116
2.	Auditoriya soatlari		64	64
3.	Ma'ruza		32	32
4.	Amaliyot		34	34
5.	Mustaqil ish		50	50

Fanning roli va ahamiyati

«O'zbekiston tarixi» fani xalq maorifi va oliy ta'lim tizimining barcha tarmoqlarida o'zining jamiyat hayotida tutgan o'rni va mavqeiga ko'ra asosiy va etakchi fandir.

O'z.Res.Prezidenti I.A.Karimov Vatan tarixining yoshlar tarbiyasidagi o'rniga alohida e'tibor berib «Xotirasiz barkamol kishi bo'lmaganidek, o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi» deb ta'kidlagan.

O'zbekiston jamoatchiligi oldida 2 ta vazifa, birinchidan yuqori ilmiy,uslubiy asosda vatan tarixini o'ranish. Ikkinchidan, yosh avlodni otashin va buyuk vatanparvar, har tomonlama barkamol insonlar qilib tarbiyalash uzviylikda bajarilmog'i lozim. Bu omillar nechog'li muvaffaqiyatli hal qilinsa, O'zbekistonimizning milliy davlat mustaqilligi ham shu darajada mustahkamlangan va ta'minlangan bo'ladi.

Fanni o'rganishning maqsad va vazifalari

Mutsaqil O'zbekistnning kelajagi bulgan yosh avlodni tarbiyalash, ular ongida milliy itsiqlol tafakkurini va vatanparvarlik g'oyalarini shakllantirishda Vatan tarixining o'rni va imkoniyatlari cheksizdir.

Milliy o'zlikni anglashda, milliy birlikni shakllantirishda, o'z xalqining ulug'ligi va pokligini bilish va qadrlashda, qadimiy va dono xalqimizning jahon xalqlari orasida tutgan o'rniga baxo berishda uning eng boy hayotiy va tarixiy tajribalardan o'rinli va kengroq foydalanishda xalqimizning oliyjanob ,hurriyatparvar, erkparvar, itsiqlolparvar an'alarini izchil o'rganish va uni yanada boyitishda,xullas mutsaqil O'zbekitson fuqarosiga xos bo'lgan barkamol insonni voyaga etkazishda O'zbekitson tarixi nihoyatda katta ahamiyatga ega. Fanni o'rganish vazifalari quyidagi nazariy-ilmiy va uslubiy asoslardagi maqsadni amalga oshirmog'i lozim:

-O'zbekitson tarixini yoritish, o'qitish va o'rganish jarayonida chuqur ilmiylik, xolislik, ta'rixiylik, xronologik izchillik,tarix haqiqatining utsivorligi asosiy va bosh yo'nalish bo'lishi lozim.

-O'zbekitson tarixini o'qitish va o'rganish jarayonida yoshlarda tarixiy bilimlar,tasavvur,tushuncha,ilmiy-nazariy yoritish shakllanmog'i lozim.

-O'zbekitson tarixi boshidan oxiriga qadar asosiy g'oya Milliy itsiqlol mafkurasiga yo'g'rilmog'i lozim.

-Vatanparvarlik, baynalminallik, insoniylik kabi fazilatlarga qaratilmog'i lozim.

-O'zbekitson tarixining har bir satri, saxifasi umumbashariy va milliy qadriyatlarini utsuvorligiga va umuman tarixga hurmat ruxi sug'orilgan bo'lishi hamda boshdan oyoq milliy itsiqlol tafakkurining kamol topishiga xizmat qilishi lozim.

-O'zbekitson tarixi fani Respublikamiz mutsaqilligini mutsaxkamlashga xizmat qilishi davr va zamon bilan hamnafas bo'lmog'i lozim.

Talabalarning o'quv va ko'nikmalariga qo'yilgan talablar(D.T.S.asosida).

O'quvchilar tarix ta'limi jarayonida quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari shart: - jahon va O'zbekiston tarixining davrlari, ijtimoiy tuzumlar, ularning atalishi va ularga xos xususiyatlar haqida tasavvurga ega bo'lish;

- asr va yil xisobini bilish, tarixiy voqea va xodisalarning davomiyligini, ularning qaysi davrga mansubligini ayta olish, eramizdan oldingi asrlarni xisoblay olish;

- insoniyat doimo oldinga intilganligi, bu esa tarixiy taraqqiyotning asosi bo'lganligini anglash;

- jamiyatda va dunyoda kechayotgan jarayonlarga o'zining mustaqil munosabatini bildiradi olish;

- tarixiy manbalarni mustaqil o'rganish asosida xulosalar chiqara olish;

- tarixiy jarayonlar haqida ma'lumotga ega bo'lish va qiyosiy tahlil sila olish;

- bobomiz Amir Temurning jahon tarixida tutgan o'rni haqida bilimga ega bo'lish;

- O'rta Osiyodagi xonliklarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayoti haqida ma'lumotga ega bo'lish;

- O'rta Osiyo xonliklaridagi feodal munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishi haqida ma'lumotga ega bo'lish;

- Rossiya bosqini, uning beshafqat generallari va ularga qarshi kurashgan vatanparvar sarkardalar, qahramonlar, milliy ozodlik harakatlari to'g'risida tasavvurga ega bo'lish;

- Sho'ro hukumati va bolsheviklarning xalqimizga qilgan adolatsiz qatagonlik siyosati, mulkiy va ma'naviy huquqlari poymol etilgani haqidagi ma'lumotlarni bilish;

- O'zbekistonning Ikkinchi jahon urushidagi ishtiroki, xalqimizning front va mehnat soqasidagi jasorati haqida tushunchalarga ega bo'lish;

- milliy mustaqillik va uning dastlabki yutuqlari, mamlakatimiz bayrog'i, gerbi, madhiyasi, davlat ramzlari, Prezidenti, tashqi loqalariga doir tushunchalarga ega bo'lish;

- jahon va O'zbekiston tarixining yangi davri haqida ma'lumotga ega bo'lish;

- Prezident asarlarini bilish, ularda ilgari surilgan qoyalar asosida mushoxada yurita olish;

- O'zbekistonning mustaqil, suveren, demokratik davlat sifatidagi tarixiy rivojlanishi haqida ma'lumotga ega bo'lish;

- mustaqil O'zbekiston Respublikasining bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlanishining umumiy xususiyati to'g'risida tasavvurga ega bo'lish;

- dunyo xalqlari oldida turgan jahonshumul muammolar, ularni bartaraf etish vazifalari, O'zbekiston Respublikasining bu muammolarni hal etish yulida amalga oshirayotgan ishlari haqida malumotga ega bo'lish;

- xarita ustida ishlay olish, tarixiy voqealar yuzasidan mustaqil mulohaza yurita olish, bayon qila olish, munozara va bahslarda faol ishtirok eta olish;

- darslik, qo'llanma, xarita, tarixiy xujjat matni ustida hamda ko'rgazmali qurollar bilan mustaqil ishlay olish;

- tarix ta'limi jarayonida egallagan bilimlarini erkin bayon eta olish, o'z sinfdoshlarining fikrlariga munosabat bildiradi olish.

- o'z maktabi, ko'chasi, tumani, qishlog'i, shahrining o'tmishi, buguni to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish.

Amaliy mashg'ulotlari mavzusi rejalari

Ushbu amaliy mashg'ulot aqliy xujum, baxs-munozara, savol-javob asosida pedagogik texnologiya qoidalari qo'llanilgan xolda o'tkaziladi.

1-Mavzu: «Avesto» kitobi-O'zbekiston tarixini o'rganishda muhim manba

Reja:

1. «Avesto» paydo bo'lgan xudud haqida munozaralar. Zardushtiylik (otashparastlik) dini tamoyillari va qonun qoidalari.

2. «Avestoda» da qadimgi ajdodlarimizning davlat boshqaruv tizimi, ijtimoiy turmushi va madaniy hayotiga oid ma'lumotlar.
3. «Avesto»ning O'rta osiyo va boshqa xududlar bo'ylab keng tarqalishi va qadimgi xalqlar madaniy hayotiga ta'siri.

O'lkamiz xalqlarining madaniyati. Diniy e'tiqodlar. "Avesto" Zardo'shtiylik dinining muqaddas kitobi. Uning O'rta Osiyo xalqlari qadimgi tarixi xaqidagi muxim manba ekanligi. Navro'z bayramining shakllanishi.

Nazorat savollari

1. "Avesto" paydo bo'lgan xudud xaqida nimalarni bilasiz?
2. Din qachon paydo bo'lgan?
3. "Zaratushtra" tarixiy shaxsmi?
4. "Avesto"ning O'rta Osiyo bo'ylab tarqalishi.
5. "Avesto" da qadimgi ajdodlarimizning ijtimoiy tuzilishi, madaniy xayoti xaqida ma'lumotlar.
6. "Avesto"da qadimgi ajdodlarimizning boshqaruv tizimiga doir ma'lumotlar.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.-T.. O'zbekiston.1998 yil.
2. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat yennilmas kuch" T.. "Ma'naviyat" 2008 y.
3. O'zbekiston tarixi Ma'ruzalar matni. Toshkent 2000 y
4. O'zbekiston tarixi. Murtazaeva va boshqalar Toshkent-2003 yil.
5. Abu Rayxon Beruniy. Qadimgi ajdodlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. 1-jild.-Toshkent. «Fan»,1968 yil.
6. O'rta Osiyo xalqlari hurfikirligi tarixidan.-T. «Fan», 1990,54-104 betlar.
7. Q.Usmonov O'zbekiston tarixi Toshkent, 2006 yil.

Amaliy mashg'ulotlari mavzusi rejalari

Ushbu amaliy mashg'ulot aqliy xujum, baxs-munozara, savol-javob asosida pedagogik texnologiya qoidalari qo'llanilgan xolda o'tkaziladi.

2-Mavzu: Vatanimiz xududida dastlabki davlatlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi

Reja:

1. Xorazm va Baqtriya ilk davlatlari paydo bo'lishining asosiy omillari.
2. O'rta Osiyoda antik davr davlatlari ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti.
3. Kushonlar saltanati. Kushon davlati va madaniyatining Vatanimiz xalqlari tarixida tutgan o'rni.

Davlatchilik tushunchasi. Jahonda ilk davlatlar paydo bo'lishining asosiy omillari. Avesto kitobida qadimgi davlatchilik tariximizga oid ma'lumotlar.

O'zbekiston xududida dastlabki ishlab chiqarish jamoalarining tashkil topishi. Xususiy mulk va turli ijtimoiy tabaqalarning vujudga kelishi. O'lkamiz xududlarida dastlabki shaharsozlik madaniyatining shakllanishi.(Sopollitepa, Jarqo'ton, Gonur, Dashtli, Oltintepa.)

Qadimgi Baqtriya. Uning o'zbek davlatchiligi shakllanishidagi o'rni. Baqtriya davlati o'zbek davlatchiligi taraqqiyotining maxsuli ekanligi. Baqtriyaning xududiy chegaralari. Baqtro, Qiziltepa va boshqa shaharlar. Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy xayot.

Qadimgi Xorazm. Qadimgi Sug'd (Sug'diyona) xaqidagi arxeologik va yozma manbalar. Qadimgi Sug'diyona shaharlari (Ko'ktepa, Afrosiyob, Uzunqir, Erqo'rg'on). Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy xayot. Ahmoniylar davlatining paydo bo'lishi va ularning O'rta Osiyo davlatlarini bosib olishi. Mahalliy axolining bosqinchilarga qarshi ozodlik uchun kurashi. To'maris, Shiroq qahramonligi. Frada qo'zg'aloni.

Nazorat savollari

1. Davlatchilik tushunchasi.
2. Jahonda ilk davlatlar qachon paydo bo'lgan?
3. Vatanimiz xududida qadimgi davlatlarning paydo bo'lishi xaqida nimalarni bilasiz?
4. Farg'ona vodiysida ilk davlat tuzilmasining shakllanishi.
5. Katta Xorazm davlati va uning ijtimoiy-siyosiy, madaniy xayoti.
6. Davan davlati va uning ijtimoiy-siyosiy, madaniy xayoti.
7. O'zbek davlatchilik tarixida Kushon imperiyasining o'rni va ahamiyati.
8. Shaharsozlikning rivojlanishi.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.-T.. O'zbekiston.1998 yil.
2. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat yennilmas kuch" T.. "Ma'naviyat" 2008 y.
3. O'zbekiston tarixi Ma'ruzalar matni. Toshkent 2000 y
4. O'zbekiston tarixi. Murtazaeva va boshqalar Toshkent-2003 yil.
5. O'rta Osiyo xalqlari hurfikirligi tarixidan.-T. «Fan», 1990,54-104 betlar.
6. Q.Usmonov O'zbekiston tarixi Toshkent, 2006 yil.
7. Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi.-Toshkent.. Sharq, 2000 yil.

Amaliy mashg'ulotlari mavzusi rejalari

Ushbu amaliy mashg'ulot aqliy xujum, baxs-munozara, savol-javob asosida pedagogik texnologiya qoidalari qo'llanilgan xolda o'tkaziladi.

3-Mavzu: O'zbek xalqining etnik shakllanishi

Reja:

1. O'zbek xalqining paydo bo'lishi masalalari. O'zbek xalq-ining etnik asosini tashkil etgan Vatanimiz xududidagi qadimgi aholi, ularning ijtimoiy-madaniy hayoti.
2. IX-XII asrlarda qarluqlar, saljuqiylarning o'zbek xalqining etnik shakllanishiga ta'siri.
3. O'zbek xalqining etnik shakllanishida XVI-asr boshlarida Movaraunnahrga kelib joylashgan o'zbek Urug'larining muhim ta'siri «O'zbek» atamasining kelib chiqishi.

Urug', qabila, elat, xalq va millat tushunchalari. O'zbek xalqining etnik shakllanishi uzoq davom etgan murakkab jarayon ekanligi. Turon zaminida turkiy qavmlarning azaliy etnos ekanligi.

O'troq xayot kechirgan eng qadimiy ajdodlarimizning Xorazm, Baqtriya, Sug'diyona, Parkana, Toxariston, Choch deb atalgan o'lkalarda tub joy axoli sifatida yashaganligi.

Chet ellik bosqinchilar (Axmoniylar, Yunonlar, Arablar ning), mo'g'ullarning tub joy axolisi irsiyatini o'zgartira olmaganligi.

IX-XII asrlarda qarluqlar, o'g'uzlar, qipchoqlar, chigillar va boshqa turkiy qavmlarning o'zbek xalqining etnik shakllanishidagi o'rni.

Mo'g'ullar istilosi, uning o'zbek xalqi etnik tarkibiga ta'siri.

XV asr oxiri – XVI asrlarda O'rta Osiyoga Dashti Qipchoq elatlari kirib kelishi va maxalliy axoli bilan aralashib, o'troqlashuvi. "O'zbek" atamasining kelib chiqishi.

O'zbekistonning milliy mustaqillik davridagi etnik xolati va bu soxadagi ijobiy o'zgarishlar. Millatlararo do'stlik va xamjixatlik.

Nazorat savollari

1. Urug`, qabila, elat, xalq va millat tushunchalari.
2. Xozirgi o`zbek xalqining etnik asosini qaysi xalqlar tashkil qiladi?
3. Chet el bosqinchilarining tub joy axolisi irsiyatini o`zgartira olmaganligi xaqida nima bilasiz?
4. Miloddan avvalgi I-minginch yil o`rtarida Markaziy Osiyodagi etnik, ijtimoiy jarayon.
5. Qarluqlar, O`g`uzlar, Qipchoqlar, Chigillar va boshqa turkiy qavmlarning o`zbek xalqining etnik shakllanishidagi o`rni.
6. O`zbek atamasining kelib chiqishi.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q.-T.. O`zbekiston.1998 yil.
2. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat yennilmas kuch" T.. "Ma'naviyat" 2008 y.
3. O`zbekiston tarixi Ma'ruzalar matni. Toshkent 2000 y
4. O`zbekiston tarixi. Murtazaeva va boshqalar Toshkent-2003 yil.
5. O`rta Osiyo xalqlari hurfikirligi tarixidan.-T. «Fan», 1990,54-104 betlar.
6. Q.Usmonov O`zbekiston tarixi Toshkent, 2006 yil.
8. Azamat Ziyov. O`zbek davlatchiligi tarixi.-Toshkent.. Sharq, 2000 yil.
9. Jabborov I. O`zbek xalqining etnografiyasi.-T.. «O`zbekiston»,1994 yil.
10. Zaki Validi. O`zbek Urug`lari.-T., 1992.

Amaliy mashg`ulotlari mavzusi rejalari

Ushbu amaliy mashg`ulot aqliy xujum, baxs-munozara, savol-javob asosida pedagogik texnologiya qoidalari qo`llanilgan xolda o`tkaziladi.

4-Mavzu: Eftalitlar, Turk hokonligi, arablar istilosi va hukmronligi davrida O`rta Osiyo Reja:

1. Eftalitlarning, xokimiyatni egallashi. Eftalitlar davrida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti.
2. Turk xokonligi davrida O`rta Osiyo. Hoqonlik davrida siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayot.
3. Arablarning O`rta Osiyoning bosib olishi. Arablar hukmronligi davrida ijtimoiy-siyosiy iqtisodiy va madaniy hayot.
4. Islom dinining O`rta Osiyoga yoyilishi, uning muqaddas manbalari.

Ko`chmanchi kidariylar va Xioniylar xaqidagi ma`lumotlar. Ularning O`rta Osiyo erlarigi yurishlari va Sosoniylar bilan munosabatlari.

Eftaliylar ularning etnik tarkibi. Eftaliylar davlatining shakllanishi uning xududiy o`rni. Eftaliylar va Eron sosoniylari. Sharqiy Eron va Shimoliy Xindistonning eftaliylar davlatiga qo`shib olinishi.

Turkiy qabilalar birlashuvining kuchayishi. "Turk" atamasining kelib chiqishi.

Turk xoqonligining vujudga kelishi. Bumin xoqon. Xoqonlik axolisining etnik tarkibi va tili. Turk xoqonligi davrida mamlakatni idora etish usuli. Axolining mashg`ulotlari. Kon ishlari. Qurolsozlik, zargarlik, xaykaltaroshlik, kulolchilik va me`morchilik. Chorvachilik va dexqonchilik. Ichki va tashqi savdoning o`sishi. Madaniyat, yozuv tizimlari, turkiy til, diniy e`tiqodlar.

Arab xalifaligining paydo bo`lishi. Xalifalikning bosqinchilik yurishlari. Yurtimizning Qutayba ibn Muslim boshchiligida arablar tomonidan istilo qilinishi. Islom dinining yoyilishi. Arab xukmdorlarining O`rta Osiyoda yuritgan siyosati. Boshqarish tizimi. Soliq siyosati. Xiroj, ushr, juzya, zakot, fitr. Axolining boshqa majburiyatlari. Arablashtirish: maxalliy madaniyat

tadbiq etilib, arab madaniyatining targ'ib etilishi. Shaxarlarga arablarning joylashtirilishi, arab tilining rasmiy davlat tiliga aylantirilishi.

Nazorat savollari

1. Eftalitlarning kelib chiqishi haqida munozara.
2. Eftalitlar va Eron sasoniylarining o'zaro munosabatlari.
3. Turk xoqonligining vujudga kelishi.
4. Sharqiy turk xoqonligi.
5. Turk xoqonligi davrida axolining ijtimoiy tabaqalanishining kuchayishi.
6. Turk xoqonligi davrida mamlakatni idora etish usuli.
7. Arab xalifaligining vatanimiz xududini bosib olishi.
8. Arablarning soliq siyosati.
9. Islom dinining yoyilishi.
10. Arablashtirish.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.-T.. O'zbekiston.1998 yil.
2. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat yennilmas kuch" T.. "Ma'naviyat" 2008 y.
3. O'zbekiston tarixi Ma'ruzalar matni. Toshkent 2000 y
4. O'zbekiston tarixi. Murtazaeva va boshqalar Toshkent-2003 yil.
5. O'rta Osiyo xalqlari hurfikirligi tarixidan.-T. «Fan», 1990,54-104 betlar.
6. Q.Usmonov O'zbekiston tarixi Toshkent, 2006 yil.
7. Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi.-Toshkent.. Sharq, 2000 yil.
8. A.Muhammadjonov. O'zbekiston tarixi. Toshkent. 2003 yil

Amaliy mashg'ulotlari mavzusi rejalari

Ushbu amaliy mashg'ulot aqliy xujum, baxs-munozara, savol-javob asosida pedagogik texnologiya qoidalari qo'llanilgan xolda o'tkaziladi.

5-Mavzu: IX-XII asrlarda o'zbek davlatchiligi: siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy xayot

Reja:

1. IX- asr boshlarida Movorounnaxrdagi siyosiy axvol. Samoniylar davlatining siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy axvoli.
2. Qoraxoniylar davlatida ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat
3. Gaznaviylar va saljuqiylar davlati.
4. Xorazmshoxlar davlatining yuksalishi.
5. IX- XII asrlarda fan va madaniyat.

IX asr boshlarida Movorounnahrning siyosiy ahvoli. Hurosonga Tohir ibn Husaynning noib etib tayinlanishi, uning mustaqillikka intilishi. Tohiriylar davlati. Ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Movorounnahr viloyatlariga somoniylar urug'idan noiblar tayinlanishi. Nasr va Ismoil somoniy islohatlari. Davlatni boshqarish tartibi. Ruhoniylar mavqei. Buhoroning islom dunyosida nufuzli markazga aylanishi. Soliq siyosati. Er-suv munosabatlari. Erga va boshqa ko'chmas mulkka egalik shakllari. Samoniylar o'rtasidagi o'zaro kurashlar somoniylar davlatining zayiflashuvi. Qoraxoniylar davlatining tashkil topishi, aholisi, etnik tarkibi turmush tarzi.

G'aznaviylar davlatining tashkil topishi, uning hududi va aholisi. Sabuktagin va Mahmud G'aznaviy davrida davlatning kuchayishi. Ichki va tashqi siyosat. Sulton Sanjar davrida Saljuqiylar davlatining yuksalishi.

Xorazmda Sulton Otsiz tomonidan Xorazmshoh Anushteginlar sulolasining o`rnatilishi. Elarslon va Takash. Xorazmshohlar davlati xududlarining kengayib borishi. Muhammad Xorazmshoh davrida davlatning yanada yuksalishi. Davlatni boshqarish tizimi. Soliq siyosati.

G`aznaviylar bilan saljuqiylar to`qnashuvi. Dandanakon jangi.

Nazorat savollari

1. Movorounnahrda toxiriylar sulolasining o`rnatilishi va uning ijtimoiy-siyosiy hayoti.
2. Samoniylar davlatining paydo bo`lishi.
3. Ismoil Samoniy davlati.
4. Samoniylar davrida davlatni idora qilish usullari.
5. Qoraxoniylar davlatining O`rta Osiyoni egallashi.
6. Qoraxoniylar davrida mulkchilik shakllari.
7. G`aznaviylar davlatining paydo bo`lishi va uning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayoti.
8. Saljuqiylar davlatining yuksalishi.
9. Xorazmshohlar davlatining paydo bo`lishi.
10. Xorazmshohlar davrida davlatni boshqarish tizimi.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q.-T.. O`zbekiston.1998 yil.
2. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat yennilmas kuch" T.. "Ma'naviyat" 2008 y.
3. O`zbekiston tarixi Ma'ruzalar matni. Toshkent 2000 y
4. O`zbekiston tarixi. Murtazaeva va boshqalar Toshkent-2003 yil.
5. O`rta Osiyo xalqlari hurfikirligi tarixidan.-T. «Fan», 1990,54-104 betlar.
6. Q.Usmonov O`zbekiston tarixi Toshkent, 2006 yil.
7. Azamat Ziyov. O`zbek davlatchiligi tarixi.-Toshkent.. Sharq, 2000 yil.
8. A.Muhammadjonov. O`zbekiston tarixi. Toshkent. 2003 yil
9. A.Qayumov. Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino. Toshkent. 1990 yil

Amaliy mashg`ulotlari mavzusi rejalari

Ushbu amaliy mashg`ulot aqliy xujum, baxs-munozara, savol-javob asosida pedagogik texnologiya qoidalari qo`llanilgan xolda o`tkaziladi.

6-Mavzu: O`rta Osiyo xalqlarining IX-XII asrlar madaniyati. Ajdodlarimizning insoniyat sivilizatsiyasiga qo`shgan hissasi

Reja:

1. IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo xalqlarining moddiy va ma'naviy madaniyatining yuksalishiga ta'sir ko`rsatgan tarixiy shart-sharoitlari.
2. Ilm-fan ravnaqi. O`rta Osiyolik allomalar va ularning jahaon sivilizatsiyasi xazinasiga qo`shgan hissasi
3. Badiiy adabiyotning rivoji. Maxmud Qoshg`oriy, Yusuf Xos Xojib, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy va boshqalar.
4. O`rta Osiyolik buyuk islomshunos allomalar. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termuziy, Imom al-Maturidiy.

Moddiy va ma'naviy madaniyatning yuksalishi (renessans) ni ta'min etgan tarixiy shart-sharoitlar. IX-XII asrlarda ilm-fan. Arab yozuvi, turk, arab, fors tillarining ijtimoiy hayotdagi o`rni. Tabiiy va ijtimoiy fanlar ravnaqi. Al-Xorazmiy, Al-Farg`oniy, Forobiy, Narshaxiy, Ibn Sino, Beruniy, Rudakiy, Mahmud Qoshg`ariy, Yusuf Xos Xojib va boshqalar.

Islom dinining davlat tayanchiga aylanishi. Sufiylik tariqatlari. Yusuf Hamadoni, G'ijduvoni, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro. IX-XII asrlarda turkiy va forsiy adabiyot. Binokorlik va me'morlik. Maqbaralar, minoralar, jome masjidlar, madrasalar, maktablar qurilishi. Ajdodlarimiz qoldirgan ilmiy va madaniy merosning jahon fani va madaniyatida tutgan o'rnini. Uning bugungi yoshlarni milliy g'oya, milliy mafkura ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati.

Nazorat savollari

1. Moddiy va madaniy madaniyatning rivojiga asos bo'lgan omillar.
2. Markaziy Osiyoning buyuk allomalari.
3. Islom dinining davlat tayanchiga aylanishi.
4. O'rta Osiyoning islomshunos allomalari.
5. Markaziy Osiyoda badiiy adabiyot rivoji.
6. IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo xalqlarining moddiy va ma'naviy madaniyati yuksalishiga ta'sir ko'rsatgan tarixiy shart-sharoitlar.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.-T.. O'zbekiston.1998 yil.
2. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat yennilmas kuch" T.. "Ma'naviyat" 2008 y.
3. O'zbekiston tarixi Ma'ruzalar matni. Toshkent 2000 y
4. O'zbekiston tarixi. Murtazaeva va boshqalar Toshkent-2003 yil.
5. O'rta Osiyo xalqlari hurfikirligi tarixidan.-T. «Fan», 1990,54-104 betlar.
6. Q.Usmonov O'zbekiston tarixi Toshkent, 2006 yil.
7. Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi.-Toshkent.. Sharq, 2000 yil.
8. A.Muhammadjonov. O'zbekiston tarixi. Toshkent. 2003 yil
9. A.Qayumov. Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino. Toshkent. 1990 yil

Amaliy mashg'ulotlari mavzusi rejalari

Ushbu amaliy mashg'ulot aqliy xujum, baxs-munozara, savol-javob asosida pedagogik texnologiya qoidalari qo'llanilgan xolda o'tkaziladi.

7-Mavzu: Amir Temur-markazlashgan davlat asoschisi

Reja:

1. Amir Temur shaxsi. Temurning siyosiy kurash maydoniga kirib kelishi.
2. Amir Temurning Movarounnahr va Xurosonda markazlashgan davlat barpo etishdagi tarixiy xizmati.
3. Amir temur davlatining ichki va tashqi siyosati.
4. Amir temur atoqli davlat arbobi, mohir diplomat.

XIV asr o'rtalarida Movarounnahrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Amir Temurning siyosiy kurash maydoniga kirib kelishi. Amir Temurning Amir Husayn bilan ittifoqi. Ularning mo'g'ul hukmdori Ilyosxo'jaga qarshi kurashi. Loy jangi, Ilyosxo'janing Samarqandga yurishi. Sarbadorlar harakati. Mo'g'ullarning chekinishi. Husayn va Temurning Samarqandni egallashi. Ular o'rtasida nizoning kuchayishi. Amir Temur hokimiyatining o'rnatilishi. Samarqand — Temur davlatining poytaxti. Amir Temurning mamlakatni birlashtirish va markazlashgan davlat tuzishdagi tarixiy xizmati. Amir Temurning harbiy yurishlari. Xorazmga va Mo'rulistonga yurishlar. Eron va Kavkazorti o'lkalarining zabt etilishi. Oltin O'rdaga yurishlar va To'xtamish xonning tor-mor etilishi. Temurning Hindistonga yurishi. Qobul va Dexlining bo'ysundirilishi. Temurning Kichik Osiyogi yurishi. Damashqning zabt etilishi. Turkiya sultoni Ildirim Boyazitning tor-mor qilinishi. Temur imperiyasining chegaralari. Amir Temur — buyuk davlat arbobi, mashhur sarkarda. Uning

harbiy va siyosiy faoliyatining tahlili. "Temur tuzuklari" va ularning ahamiyati. Mamlakatni boshqarishning suyg'ol usuli. Amir Temur davrida diniy munosabatlarning rivojlanishi. Hukmdor pirlari (Shamsiddin Kulol, Sayid Baraka, Zayniddin Tayobodiy)ning Temur faoliyatiga ta'siri. Davlat siyosatida islom dinining o'rni. Saltanatni boshqarish tizimi. Qo'shinning tuzilishi va harbiy intizom.

Amir Temur vafotidan keyin temuriy shahzodalar o'rtasida toju taxt uchun ichki kurashlar. Imperiyaning parchalanishi. Shoxruh xokimiyatining o'rnatilishi. Xo'jalik va madaniy hayot. Soliq siyosati va majburiyatlar. Tijorat ishlari. Fan va madaniyatga homiylik. Shaharlarning obod qilinishi. Samarqanddagi me'morlik ishlari, bog' va saylgohlarning yaratilishi. Movarounnahrda Ulugbek hukmronligi. Tashqi siyosat. Xorazm va Farg'onaning bo'ysundirilishi. Mirzo Ulug'bek davrida madaniyat, ilm-fan va adabiyot ravnaqi. Ulug'bek akademiyasi. Qozizoda Rumiy, Riyosiddin Jamshid, Ali Qushchi. Miniatura san'ati. Kamoliddin Behzod. Tarix-navislik: Sharafiddin Ali Yazdiy, Nizomiddin Shomiy, Ibn Arabshoh, Mixroid, Xopdamir, Abdulrazzoq Samarqandiy.

Ulug'bekka qarshi bo'lgan muxolif kuchlar. Temuriylar o'rtasidagi ichki kurashlarning avj olishi. Ulug'bekning o'ldirilishi. Movarounnahrda Abusaid va uning o'g'illari, Xurosonda Husayn Boyqaroning hukmronligi.

Alisher Navoiyning siyosiy va adabiy faoliyati. Adabiy muhit. Sakkokiy, Lutfiy, Jomiy, Ogahiy. Turk o'zbek tilini takomillashuvi.

Temuriylar xokimiyatining inqirozga yuz tutishi, uning sabablari.

Nazorat savollari

1. Amir Temurning siyosiy kurash maydoniga kirib kelishi.
2. Amir Temur va Amir Xusayn munosabatlar.
3. Loy jangi xaqida nima bilasiz?
4. Sarbadorlar kimlar bo'lgan?
5. Amir Temur xokimiyatining o'rnatilishi.
6. Amir Temurning davlatni boshqarish siyosati.
7. Amir Temur davlati siyosatida islom dinining o'rni va ahamiyati.
8. Ulug'bek akademiyasi va unda faoliyat ko'rsatgan allomalar.
9. Amir Temuriylar xokimiyatining inqirozga yuz tutishi.
10. Amir Temur va temuriylar davrida badiiy adabiyot. Alisher Navoiy.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Amir Temur-faxrimiz, g'ururimiz. Asarlar, 5-jild.
2. Karimov I.A. Amir Temur davridagi bunyodkorlik va hamkorlik ruhi bizga namuna bo'laversin. Asarlar, 4-jild. T., «O'zbekiston», 1996.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.-T.. O'zbekiston. 1998 yil.
4. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat yennilmas kuch" T.. "Ma'naviyat" 2008 y.
5. Axmedov B. Amir Temurni yod etib.-T: O'zbekiston, 1996.
6. Amir Temur jaxon tarixida. Toshkent, Sharq, 1996 y.
7. Mo'minov I. Amir Temurning O'rta Osiyo xalqlari tarixida tutgan o'rni va roli.-T.. Fan, 1993 yil.
8. O'zbekiston tarixi. Murtazaeva va boshqalar Toshkent-2003 yil.
9. A.Muhammadjonov. O'zbekiston tarixi. Toshkent. 2003 yil

Amaliy mashg'ulotlari mavzusi rejalari

Ushbu amaliy mashg'ulot aqliy xujum, baxs-munozara, savol-javob asosida pedagogik texnologiya qoidalari qo'llanilgan xolda o'tkaziladi.

8-Mavzu: O'zbek xonliklarining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti

Reja:

1. Shayboniylar va Ashtarxoniylar davrida Buxoro amirligining siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayoti
2. Xiva xonligining tashkil topishi. Xonlikning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti.
3. Qo'qon xonligining tashkil topishi va uning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti.

Muhammad Shayboniyxonning Movarounnahrda yurishi. Boburning Shayboniyxon bilan to'qnashuvi. Boburning Movarounnahr erlarini birlashtirish uchun harakati. Uning davlat arbobi, olim sifatida jahon tarixidagi o'rni "Boburnoma". Movarounnahr va Xurosonning shayboniylar tomonidan bosib olinishi va shayboniylar sulolasining o'rnatilishi.

Shayboniylar sulolasining boshqaruv tizimi. Mamlakatning sultonlar va beklarga bo'lib berilishi. Amaldorlar va beklar mavqeyining kuchayishi, markaziy davlat hokimiyatining zaiflashuvi. Shayboniyxon o'limidan keyin xokimiyat uchun ichki kurashlarning avj olishi. Mamlakatning parchalanishi.

Mamlakatni birlashtirish yo'lidagi harakatlar. Ubaydullo Sulton. Buxoro mavqeyining oshib borishi. Poytaxtni Buxoroga ko'chirilishi. Abdullaxon II davrida Buxoro xonligining tashkil topishi. Buxoroni obodonlashtirish, madrasa, machit, yangi imoratlar qurish ishlari. Madaniy hayot. Abdullaxonning mamlakatni birlashtirish va markazlashgan kuchli xokimligini tiklash uchun olib borgan urushlari.

Buxoro xonligida Ashtarxoniylar (Joniylar) sulolasining o'rnatilishi. Ashtarxoniylar sulolasi davrida Buxoro xonligining ijtimoiy—siyosiy va iqtisodiy ahvoli. Agrar munosabatlar va suv inshootlari qurilishi. Shahar xo'jaligi. Soliq siyosati. Hunarmandchilik. Ichki va tashqi savdo munosabatlari. Pul muomalasi. Rossiya bilan aloqalarning kengayishi. Madaniy haet. Mamlakatda ichki kurash va tarqoqlikning kuchayishi. Eron shohi Nodirshohning Buxoro xonligiga bosqinchilik yurishlari. Buxoro xonligida hokimiyatning mang'itlar sulolasiga o'tishi va xonlikning Buxoro amirligi deb yuritila boshlanishi. Mang'itlar davrida Buxoro amirligining ijtimoiy va davlat tuzumi. Qishloq xo'jaligining ahvoli. Tijorat ishlari. Hunarmandchilik. Ma'muriyatchilik, zo'ravonlik va o'zboshimchalikning kuchayishi. Buxoro va Xiva o'rtasidagi urushlar va ularning og'ir oqibatlari. Iqtisodiyotning tushkunligi. Qashshoqlik. Xalq g'alayonlari. Miyonqal'a qo'zg'aloni, uning ahamiyati. Buxoro va Rossiya munosabatlari. Tenev va Bogoslavskiyning diplomatik missiyalari.

Buxoro amirligida madaniy hayot. Buxoro — islom va ma'rifat markazi. Maktab va madrasalar. Ilohiyot plmi, arab tili, notiqlik, san'ati, aljabr, tarixia adliya asoslarining o'rgatilishi Qozilar, masjid imomlari, mudarrislarining tayyorlanishi. Adabiy hayot. Mushfiqiy, Nasafiy. Turdi, Bedil, Xofiz, Tanish Buxoriyning «Abdullanoma» asari. XVI-XIX asr Buxoro tarixchilari. Axmad Donish, Somiy va boshqalar, «Tarixi mang'itiya» asarlari. Me'morchilik va shaharsozlik.

Xiva xonligining tashkil topishi. Elbarsxon va undan keyingi xonlar. Xiva hokimiyatining Muhammad Rahim qo'liga o'tishi va xonlikda Qo'ng'iro't o'zbekdari sulolasiniig o'rnatilishi. Muhammad Rahimxon davrida xonlik chegaralarining kengaytirilishi. Qoraqalpqlarning bo'isundirilishi. Ijtimoiy-iqtisodiy ahvol. Tijorat ishlari. Xivaning Rossiya bilan aloqalari. Bekovich—Cherkasskiy va Nikiforov diplomatik missiyalari. Madaniy hayot. Munis Ogahiy. Me'morchilik. Xivada go'zal imoratlar, minoralarining bunyod etilishi.

XVIII asr Farg'ona vodiysidagi ahvol. O'zbeklarning ming urug'idan bo'lgan Shoxruhbiy tomonidan Qo'qon xonligiga asos solinishi. Xonlikning hududi va aholisi, ijtimoiy—siyosiy, iqtisodiy hayoti. Muhammad Alixon davrida xonlik chegaralarining kengaytirilishi. Toshkent, CHimkent, Sayram, Sharqiy Turkiston va Oloy erlarining bo'ysundirilishi. Buxoro amiri Nasrullo bilan Qo'qon xonligi o'rtasidagi xunrezlik urushlari va ularning oqibati. Qo'qon xonligidagi ichki kurash. Xalq noroziligining kuchayishi. Toshkent qo'zg'oloni. Qipchoqlar hukmronligi. Olimxon fitnasi va qipchoqlarning qirg'in qilinishi. Quqon va Rossiya munosabatlarining keskin yomonlashuvi. Qo'qon xonligida madaniy hayot. Ilm-fan, san'at, adabiyot. Mashrab, Uvaysiy, Nodirabegim, Maxmur, Gulxaniy, Hakim

xon To'ra «Muntaqab uttavorix», Ibrat «Tarnx». Aziziy «Tarixi Aziy». San'at. Me'morchilik. O'zbek xonliklarining ilg'or Evropa mamlakatlaridan ijtimoiy—siyosiy, iqtisodiy va texnika jihatidan orqada qolishi, uning sabablari. Xonliklardagi siyosiy

parokandalik, o'zaro nizo va besamar urushlarning pirovard natijada ularning Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishiga olib kelishi.

Nazorat savollari

1. Shayboniyxon va Bobur munosabatlari.
2. Shayboniylar sulolasining o'rnatilishi.
3. Shayboniylar davrida mamlakatni idora qilish usuli.
4. Abdullaxon II ning mamlakatni birlashtirish uchun olib borgan xarakatlari.
5. Shayboniylar davrida madaniy xayot.
6. Ashtarxoniylar (Joniylar) sulolasining o'rnatilishi.
7. Qo'qon xonligining tashkil topishi.
8. Xeva xonligining tashkil topishi.
9. Buxoroda xokimiyatga mang'itlar sulolasinigng kelishi.
10. Ashtarxoniylar davrida madaniy xayot.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.-T.. O'zbekiston.1998 yil.
2. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat yennilmas kuch" T.. "Ma'naviyat" 2008 y.
3. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi.-Toshkent.. Sharq, 2000 yil.
4. Ahmedov B. O'zbek ulusi.-Toshkent. «Nur»,1992 yil.
5. BobobekovX. Qo'qon tarixi. T., 1996.
6. Mirza Abdulazim Somiy. Manng'it hukumdorlari tarixi. T., 1992.
7. Narshaxiy M. Buxoro tarixi. «Meros»turkumi.-T.. «Kamalak»,1991yil.
8. B.Ahmedov. Tarixdan saboqlar. Toshkent 1994 yil.
9. O'zbekiston tarixi. Murtazaeva va boshqalar Toshkent-2003 yil.
10. Q.Usmonov O'zbekiston tarixi Toshkent, 2006 yil.

Amaliy mashg'ulotlari mavzusi rejalari

Ushbu amaliy mashg'ulot aqliy xujum, baxs-munozara, savol-javob asosida pedagogik texnologiya qoidalari qo'llanilgan xolda o'tkaziladi.

9 Mavzu: Chor Rossiyaning Turkistonda yuritgan mustamlakachilik siyosati

Reja:

1. Rossiyaning boshqaruv tizimining o'rnatilishi.
2. Chorizmning Turkistonda yuritgan mustamlakachilik siyosati: o'lka iqtisodiyotining Rossiya manfaatlariga bo'ysindirilishi.
3. Chorizmning aholini ko'chirish siyosati, uning asoratli oqibatlari.
4. Chor mustamlakachi ma'mirlarning o'lka xalqlarining ma'naviy hayotiga salbiy ta'siri.

XIX asr o'rtalarida o'zbek xonliklarining ijtimoiy— siyosiy ahvoli va o'zaro munosabatlari. O'rta Osiyo masalasida Angliya bilan Rossiya o'rtasidagi raqobat. Chorizmning O'rta Osiyoni bosib olishi uchun harbiy yurishlarining boshlanishi. Chor Rossiyasi qo'shinlarining Qo'qon xonligi hududlariga hujumi. Oqmachit, So'zak, Avliyoota (Jambul), Turkiston, Chimkent shaharlarining zabt etilishi, Toshkent mudofasi, uning bosib olinishi. Jizzax, O'ratepa uchun janglar. Turkiston generap—gubernatorligining tashkil etilishi. Kaufmanning Buxoroga yurishi. Samarqandning zabt etilishi. Zirabuloq yonidagi jang, amir qo'shinlarining mag'lubiyati. Samarqand va Kattaqo'rg'onning Buxoro xonligidan tortib olinishi. Chor Rossiyasi hukmronligiga qarshi kurashning dastlabki qadamlari. Samarqandda 1968 yilgi qo'zg'olon. Buxoro amirligining Rossiya vassaliga aylantirilish. Kaufmanning Xiva xonligiga bosqinchilik yurishi. Xazorasp. Xo'jayli, Qo'ng'irotni zabt etilishi. Gandimiyon shartnomasi. Xiva xonligining Rossiya vassapiga aylantirilishi. Quyi Amudaryo o'ng soxilining tortib olinishi.

Qo'qon xonligida siyosiy tanglik. Xalq quzgonlari va uning harakatlantiruvchi kuchlari. Po'latxon, Nasriddinbek Chor Rossiya tomonidan Qo'qon xonligining bosib olinishi va

xonlikning tugatilishi. Farg'ona viloyatining tashkil etilishi. Chor Rossiyaning turkmanlarga qarshi yurishlarni. Gukdepi (Geoqdepa), Ashabad va boshqa shahar va qishloqlarning zabt etilishi. Kaspiyorti viloyatining tashkil etilishi. Eron va Afg'oniston hukumatlari bilan chegaralarning belgilab olinishi. Chorizmning o'lkamizdagi mustamlakachilik siyosati. Mustamlakachilik boshqaruv tizimining o'rnatilishi. 1867 yilgi Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi qonun Harbiy boshqaruv tartibi. O'lkani viloyatlar, uездlar, volostlar, uchastkalarga bo'lib boshqarilishi. 1886 yilgi «Turkiston o'lkasini boshqarish haqida»gi nizom va ma'muriyatchilikning kuchayishi. Toshkent shahar dumasini.

Chorizmning Turkistonda iqtisodiy xukmronlikni o'rnatish tadbirlari. Ishlab chiqarish munosabatlaridagi o'zgarishlar. O'lkada rus sanoat va moliya kapitalining xukmronligi. Tijorat ishlari. Temir yo'l, zavod va fabrikalar qurilishi. Agrar siyosat, Rus aholisini ko'chirib keltirish siyosati. Mahalliy aholini unumdor erlardan siqib chiqarilishi. Paxtachilikning xukmron tarmoqqa aylana borishi.

Chorizmning Turkistonda mustamlakachilikni kuchaytirishga qaratilgan madaniy va ma'rifiy siyosati. Mahalliy xalqlar haq-huquqlari, ma'naviyati, urf-odatlarining oyoq osti qilinishi. Ruslashtirish. Rustuzem maktablari. Adabiyot, fan, san'at, ijtimoiy-falsafiy fanlar.

Turkiston xalqlarining chorizmning mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy ozodlik harakatining boshlanishi, uning bosqichlari. Farg'ona vodiysidagi xalq harakatlari. Qurbonjon dodxoh, Yoqubbek. 1892 yilgi Toshkent qo'zg'oloni. 1898 yilgi Andijon qo'zg'oloni. XX asr boshlarida Turkistonning ijtimoiy-siyosiy hayoti. Demokratik va inqilobiy harakatlarning kuchaya borishi. Dehqonlar g'alayonlari. Namoz Pirimqulov. Turkistonda jadidlar harakatining yuzaga kelishi. Uning atoqli vakillari: I. Gaspirali, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxonov, A. Avloniy, A. Fitrat, Hamza. Ularning ijtimoiy-siyosiy qarashlari. Jadid maorifi, adabiyoti, matbuoti, teatri. Madaniy-ma'rifiy va xayriya jamiyatlari. Birinchi jahon urushining o'lkaga hayotiga salbiy ta'siri. Chorizmning mahalliy aholini front orqasidagi ishlarga safarbar etish siyosati. Mehnatkash aholi noroziligining kuchayishi. 1916 yilgi xalq qo'zg'oloni va uning xususiyati.

Nazorat savollari

1. Chorizmning O'rta Osiyo masalasida Angliya bilan raqobati.
2. Chorizm qo'shinlarining O'rta Osiyo xududlarini bosib olishi.
3. Turkiston General Gubernatorligi va uning vakolatlari.
4. Qo'qon xonligining tugatilishi.
5. Chorizmning o'lkamizdagi mustamlakachilik siyosati.
6. Ruslashtirish siyosati va uning oqibatlari.
7. Toshkent qo'zg'oloni.
8. Dukchi Eshon voqeasi.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.-T.. O'zbekiston. 1998 yil.
2. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat yennilmas kuch" T.. "Ma'naviyat" 2008 y.
4. Ziyoev X. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash.-T.. 1998 yil.
5. Ziyoev X.Z. O'rta Osiyo va Sibir (XV-XIX asrlar) T., 1992.
6. Qosimov B. Ismoilbek Gasparali.-T., 1992 yil.
7. Muhammadjon A.R., Ne'matov T.I. Buxoro va Xivaning Rossiya bilan munosabatlari tarixiga doir ba'zi manbalar. T., 1957.
8. Sodiqov H. Shamsutdinov R., Ravshanov P., Usmonov Q. O'zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. -T., «Sharq», 2000 yil.
9. Karimov Sh., Shamsuddinov R. Turkiston Rusiya bosqini davrida.-Andijon: «Meros», 1995 yil.

10. O'zbekiston tarixi. Murtazaeva va boshqalar Toshkent-2003 yil.
11. Q.Usmonov O'zbekiston tarixi Toshkent, 2006 yil.

Amaliy mashg'ulotlari mavzusi rejalari

Ushbu amaliy mashg'ulot aqliy xujum, baxs-munozara, savol-javob asosida pedagogik texnologiya qoidalari qo'llanilgan xolda o'tkaziladi.

10-Mavzu: Turkistonda jadidchilik harakati

Reja:

1. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Jadidchilik harakatining yuzaga kelishi.
2. Turkiston jadidlari ilgari surgan g'oyalar, ma'rifiy qarashlar va ularning ilg'or, progressiv mazmun mohiyati.
3. Jadidlarning o'lka halqlari orasida olib borgan madaniy-ma'rifiy faoliyati.
4. Jadidchilik harakati namoyandalarning Turkistondagi demokratik va milliy istiqchilik harakatlariga o'tkazgan ta'siri.

Rossiyada 1917 yil fevral burjua—demokratik inqilobi, podsho hokimiyatining ag'darilishi, uning o'lkamizga ta'siri. Turkistonda ishchi va askar deputatlari soveti. Musulmon mehnatkashlari sho'rosi. Rossiya Muvaqqat hukumati Turkiston qo'mitasining tuzilishi. Jadidlarning faollashuvi. «Sho'roi islomiya», «Sho'roi ulamo» tashkilotlarining tuzilishi va ularning faoliyati. Umumturkiston musulmonlarining qurultoylari. Jadid matbuot organlari. Siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlarining vujudga kelishi, ularning faoliyati. «Islom mehnatkashlar ittifoqi» a'zolarining faoliyati.

Nazorat savollari

1. Jadidchilik xarakatining yuzaga kelishi.
2. Jadidchilik xarakatining atoqli vakillari.
3. Jadid maorifi.
4. XX-asr boshida Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy xayotning o'zgarishi va uning jadidchilar faoliyatiga ta'siri.
